

## AMALIYOTCHI PSIXOLOG TOMONIDAN O‘SMIRLARDA TARBIYASI “QIYIN”LIK HOLATINI KELIB CHIQISH SABABLARINING TADQIQ ETILISHI

*Jumayeva Marg‘uba Tolibovna*

*Buxoro viloyati Jondor tumani 15-maktab psixologi*

*Sadillayeva Saida Salimovna*

*Buxoro viloyati Jondor tumani 16-maktab psixologi*

*Toyirova Zarina Shuhrat qizi*

*Buxoro viloyati Jondor tumani 17-maktab psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘smirlarda tarbiyasi “qiyin”lik holatining kelib chiqish sabablari hamda ularni amaliyotchi psixolog tomonidan tadqiq etish masalalari yoritilgan. O‘smirlik davridagi psixologik o‘zgarishlar, oilaviy va ijtimoiy omillarning ta’siri hamda xulq-atvordagi muammolarni aniqlash usullari tahlil qilingan. Shuningdek, amaliyotchi psixologning diagnostik, profilaktik va korreksion faoliyatining ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘smirlik davri, tarbiyasi qiyin o‘smir, amaliyotchi psixolog, psixologik diagnostika, xulq-atvor, agressivlik, emotsional holat, ijtimoiy muhit, psixoprofilaktika, korreksion ishlar.

### KIRISH

O‘smirlik davri inson hayotidagi murakkab psixologik bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. O‘smir o‘zining mustaqilligini namoyon qilishga intiladi, atrofdagilarga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi va o‘z “men”ini anglash jarayoni kuchayadi. Shu sababli ayrim hollarda o‘smirlarda tarbiyasi “qiyin”lik holatlari kuzatiladi. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar odatda kattalarning talablariga qarshilik ko‘rsatadi, intizom buzadi, agressiv yoki tortinchoq xulq namoyon qiladi. Ayrim hollarda ular darslarga qiziqmaslik, tengdoshlari bilan nizolashish yoki salbiy guruhlar ta’siriga tushib qolish kabi holatlarni boshdan kechiradi. Bunday xulq-atvorning kelib chiqish sabablarini aniqlashda amaliyotchi psixologning faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Amaliyotchi psixolog avvalo o‘smirning individual psixologik xususiyatlarini o‘rganadi. Psixologik kuzatuv, suhbat, test va diagnostik metodlar yordamida bolaning emotsional holati, qiziqishlari va xulq-atvoridagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Bu esa muammoning asosiy sabablarini aniqlash imkonini beradi. Tarbiyasi qiyinlik holatining asosiy sabablaridan biri oilaviy muhit bilan bog‘liqdir. Oiladagi nizolar, ota-onaning

farzandga e'tiborsizligi yoki haddan tashqari qattiqqo'lligi bolaning ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi. Mehr va e'tibor yetishmasligi natijasida o'smirda agressivlik, o'ziga ishonchsizlik yoki tushkunlik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli amaliyotchi psixolog ota-onalar bilan ham suhbatlar olib borishi va oilaviy muhitni o'rganishi kerak.

Ijtimoiy muhit ham o'smir xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Tengdoshlar ta'siri, internet va ommaviy axborot vositalaridagi salbiy g'oyalar ayrim o'smirlarning noto'g'ri yo'l tutishiga sabab bo'ladi. Psixolog o'smirning ijtimoiy muhitini o'rganib, uning salbiy ta'sirlardan himoyalanihiga yordam berishi zarur. Ta'lim jarayonidagi muammolar ham tarbiyasi qiyinlik holatini kuchaytirishi mumkin. O'qituvchi bilan ziddiyatlar, o'qishga qiziqmaslik yoki o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar o'smirning ruhiy holatiga ta'sir qiladi. Shu sababli amaliyotchi psixolog pedagoglar bilan hamkorlikda ishlashi va o'smirda individual yondashuvni tavsiya etishi muhimdir.

Psixolog tomonidan olib boriladigan psixoprofilaktik va korreksion ishlar tarbiyasi qiyin o'smirlarni ijobiy tomonga yo'naltirishda muhim vosita hisoblanadi. Turli treninglar, motivatsion suhbatlar, relaksatsion mashqlar va individual maslahatlar orqali o'smirning o'ziga bo'lgan ishonchi oshiriladi. Bu esa uning jamiyatga moslashuvi va xulq-atvorining yaxshilanishiga yordam beradi.

O'smirlar bilan ishlashda ishonchli muloqot muhim ahamiyatga ega. Psixolog o'smirni tinglashi, uning muammolariga befarq bo'lmasligi va samimiy munosabatda bo'lishi kerak. O'zini tushunilgan deb his qilgan o'smir asta-sekin salbiy xulq-atvordan uzoqlasha boshlaydi.

O'smirlardagi tarbiyasi "qiyin"lik holati ijtimoiy dezadaptatsiya oqibati bo'lib, bu muammoni o'rganishda amaliyotchi psixolog tomonidan bir qator omillar hisobga olinishi kerak. Uni belgilovchi tasniflar sifatida o'smirning o'quv (ish) faoliyatidagi ijtimoiy mavqei, do'stlari, atrofidagi insonlar va oila a'zolari bilan shaxslararo aloqalari xizmat qiladi. O'smirlar muammosi bilan shug'ullanuvchi psixolog uchun ularning tarbiyasidagi "qiyin"lik omillarini doimiy tarzda qayd qilib borish ular bilan amalga oshiriladigan amaliy faoliyatni yengillashtiradi.

O'smirlarda inqirozli vaziyatni boshdan kechirish jarayoni o'zgaruvchan bo'lib, uning ruhiy holatida turli o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bunda avval psixoemotsional zo'riqishning ortishi kuzatiladi. O'smir vaziyatdan chiqib ketish yo'llarini faol izlaydi. Ruhiy holati bu erda me'yoriy chegarada bo'ladi. Inqirozning boshlang'ich davrida negativ emotsiyalarning shakllanishi, bu emotsiyalarni atrofdagilarga nisbatan qaratilishi natijasida atrofdagilarning o'smirda nisbatan ko'p holatlarda salbiy munosabatlarini shakllanishi o'smir bilan shaxslararo munosabatlarda o'zaro nizolar, janjallar agressiv xulq ko'rinishlarini kelib chiqishiga olib keladi.

Vaziyatdan chiqib ketish usullarining qo`llanilishi samarali natija bermasa, u holda psixik zo`riqish holati ortishi (negativ) reaksiyalarning kuchayishiga, g`azab, achchiqlanish kabi salbiy emotsional holatlarni kelib chiqishiga olib keladi.

O`smir tomonidan muammoni hal etilishiga barcha ichki va tashqi imkoniyatlarni safarbar etilishi natija bermasa, ijtimoiy adaptatsiyaning ilk buzilish belgilari namoyon bo`ladi. O`smirning barcha urinishlari natija bermagan holatda, unda himoyasizlik, ojizlik, o`zining chorasizligi, yuzaga kelgan vaziyatni o`zgartira olmaslik, undagi intellektual, emotsional sohalardagi buzilishlar keltirib chiqaradi. Aynan shu bosqichda o`smirda inqirozli vaziyatdan chiqib ketish yo`li sifatida jismoniy va autoagressiya, suitsidal fikr va urinishlar, apatiya va psixoz holatlari paydo bo`lishi mumkin.

O`smirlarda “Men” obrazidagi qarama-qarshiliklar – o`smir tomonidan o`ziga ishonch hissini yo`qotilishi ”o`zini topa olish” hissini hali shakllanib ulgurmaganligi natijasida kelib chiqadi. Natijada hayot mazmuni va maqsadini yo`qotish hissi shakllanadi. Inqirozli vaziyatda ichki shaxslilik qarama-qarshiliklari o`smirda o`zini va nizoli vaziyatni bira to`la yengib o`tishi undagi shaxslilik jabhasidagi o`zgarishlarga sabab bo`ladi.

O`smirda inqirozli vaziyat uning ichki dunyosini o`zgarishiga olib keladi, unda “Men” tizimining buzilishi, o`z-o`zini anglash, o`z-o`ziga baho berish, chorasizlik, axloqiy muvozanatsizlik, xushomadgo`ylik xususiyatlari kuzatiladi. Bu holat o`smir kechinmalarini xarakteriga bog`liq bo`lib, konstruktiv bo`lmagan kechinmalar ta`sirida shakllangan o`smirning “Men”i bir tomondan kompensator himoya mexanizmi sifatida inqirozli vaziyatdan chiqib ketish vazifasini o`tasa, ikkinchi tomondan o`smirning ijtimoiy adaptatsiyasiga xalaqit beradi. Bu esa o`smir oldida turgan vazifalarni hal etishga to`squinlik qiladi, o`smirda o`zini, yuzaga kelgan vaziyatni yaxshi tomonga o`zgarishi mumkin emasligi haqida turg`un fikr paydo bo`ladi. “O`z-o`zini yo`qotish” paydo bo`lishi bilan o`smirlar ichki dunyosini qayta qurish, ichki shaxslilik qarama-qarshiliklarini hal etish yo`llarini izlash boshlanadi, yangi “Men” shakllanishi uchun zamin paydo bo`la boshlaydi.

Amaliyotchi psixolog faoliyatida o`smirlik davriga xos buzilishlarning dinamikasini aniqlash esa turli masalalarni yechish, jumladan, ekspert xulosasini tuzish, ular bilan olib boriladigan rehabilitatsion chora-tadbirlarning individual rejasini tuzishga imkon beradi.

Amaliyotchi psixolog o`z faoliyati davomida quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

Psixodiagnostika natijalarini sir saqlash tamoyili – bu o`rganilayotgan shaxs shaxsan ruxsat bermagunicha uning natijalarini oshkor qilmaslikni taqozo etadi. Psixodiagnostika ilmiy maqsadlarda, eksperimental tadqiqotning bir qismi sifatida

o`tkazilayotgan holatlar bundan mustasno, lekin bu holatlarda ham, odatda natijalarni e`lon qilishda sinaluvchining aniq familiyasi va ismini bermaslik tavsiya etiladi.

Psixodiagnostik metodikalarning ilmiy asoslanganligi tamoyili – ularni eng kamida validlik, aniqlilik, ishonchlilik va eng muhimi metodikalarning mahalliy sharoitlarga muvofiqligi talablariga javob berishini taqozo etadi, ya`ni ular ishonish mumkin bo`lgan natijalarni berishi kerak.

Ziyon yetkazmaslik tamoyili – psixodiagnostika natijalarini har qanday holatda tadqiq etilgan shaxsga ziyon yetkazmasligi kerakligini nazarda tutadi. Agar psixodiagnostika tanlov (konkurs) asosida tanlab olish maqsadida yoki odamni ishga qabul qilishda o`tkazilayotgan bo`lsa, unda mazkur tamoyil psixodiagnostika natijalari sinaluvchi uchun oshkora bo`lishi tamoyili bilan birgalikda qo`llaniladi. Bunda sinaluvchi, undan nimani va qanday o`rganilishini, testdan o`tkazish, uni tadqiq etishning natijasi qandayligini, shuningdek, bu ma`lumotlar uning taqdirini (muammosini) hal qilishda kim tomonidan va qanday tarzda foydalanish mumkinligi kabilar haqida ma`lumotni talab qilishi mumkin.

Xulosalarning obyektivligi tamoyili – testlashtirish natijalaridan ularning ilmiy asoslangan bo`lishligini talab qiladi. Ya`ni psixodiagnostika xulosalari test o`tkazayotgan yoki uning natijalaridan foydalanadigan shaxsning subyektiv ustanovkalariga mutlaqo bog`liq bo`lmasligi va u tomonidan belgilangan bo`lmay, balki ishonchli metodikalarni qo`llagan holda o`tkazilgan testlashtirish natijalariga asoslangan bo`lishi shart.

Taklif etiladigan tavsiyalarning samaradorligi tamoyili – bunday tavsiyalar kimga berilayotgan bo`lsa, shu shaxslar uchun albatta foydali bo`lishi kerak. Testlashtirish natijalaridan kelib chiqqan holda o`rganilayotgan odam uchun foydasi tegmaydigan yoki qanday oqibatlariga olib kelishi noma`lum bo`lgan amaliy tavsiyalarni berishga ruxsat etilmaydi.

Amaliyotchi psixolog faoliyatida yuqoridagi talablar bilan bir qatorda yaxshi nazariy tayyorgarlikka ega bo`lish, psixodiagnostik metodikalar va ularni qo`llash qoidalarini mukammal bilish, tegishli metodikalardan amalda foydalanish yuzasidan etarlicha tajribaga ega bo`lish talab etiladi.

Amaliyotchi psixolog foydalanadigan test va metodikalar o`z-o`zidan yuzaga kelavermaydi. Ular o`rganilayotgan obyektga oid qandaydir bir nazariya zaminida yuzaga keladi va rivojlanadi. Masalan, intellekt testlari, intellekt tabiati, tuzilishi, ahamiyati va hayotiy namoyon bo`lishi haqidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi. Shaxs testlari esa shaxsni ilmiy ta`rifi shaxs tuzilishini tushunish, shu shaxs haqida obyektiv mulohaza yuritish mumkin bo`lgan ma`lum bir shaxs nazariyalariga asoslanadi. Har bir psixodiagnostik metodika ayni vaqtda o`zi bog`liq bo`lgan u yoki bu nazariya bilan boyitilgan va chegaralangan bo`ladi. Tegishli nazariyani bilgan holda shu nazariya

doirasida o`rganilayotgan odam haqida, ko`pincha bevosita psixodiagnostika natijalari doirasidan (chegarasidan) kengroq, uzoqni ko`zlagan xulosalar qilishga erishish mumkin. Shuning uchun shaxs xislatlaridan birini psixodiagnostika yordamida aniqlash bilan uning boshqa bir xislatini qay darajada rivojlanganligi haqida ishonchli mulohazalarga kelish mumkin. Lekin psixodiagnostika metodikasi zaminida yotadigan nazariya ko`pincha uning natijalarini izohlashni (interpretatsiya qilishni) cheklashi mumkin. Shunday metodikalardan biri shaxsni o`rganishga mo`ljallangan Z.Freydning psixoanaliz ta`limotiga asoslangan Tematik Appersepsiyalashgan Test (TAT), natijalarini faqat shu ta`limot doirasidagina izohlashni va shularga asosan tegishli xulosalarga kelishni talab qiladi. Bunda shaxs xislatlarining gumanistik yoki faktorli nazariyalariga ko`ra asoslanishi noo`rin bo`ladi.

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, amaliyotchi psixolog har qanday psixodiagnostik metodikalardan amaliyotda foydalanishda mazkur metodika asoslanadigan nazariyani bilish shartdir. Bularsiz tadqiqot natijalarini tahlil qilish, izohlash va xulosalar chiqarishda jiddiy xatolarga yo`l qo`yishi mumkin. Metodikani mukammal o`zlashtirganlik uni sinaluvchi e`tiboriga havola etish, natijalarini tahlil qilish va izohlash tartib-qoidalariga oid bilim va malakalarga ega bo`lishni taqozo etadi. Tadqiqotchi toki testni yaxshi o`zlashtirib olmaganicha yoki hech bo`lmasa o`zi qo`llamoqchi bo`lgan testni o`zida yoki o`zi yaxshi bilgan shaxslarda o`tkazib ko`rmaguncha, undan boshqalarni o`rganishda foydalanmasligi kerak. Psixodiagnostik metodikalarni qo`llash tartib, talab, qoidalarini ham bilish juda muhimdir. Bu tartiblarga amal qilish ishonchli natijalarni olish imkoniyatini bersa, ularni buzish jiddiy xatolarga olib keladi. Testdan foydalanish vaqtida albatta sinaluvchilarning individual xususiyatlari, ularning mazkur vaziyatdagi holati va ko`plab psixodiagnostikaga ta`sir qiluvchi omillarni hisobga olish lozim. Bunda psixologik tadqiqotlar olib borishning asosiy tamoyillari bo`lmish determinizm va sistemalilik tamoyillariga amal qilish kerak.

Amaliyotchi psixolog tegishli psixodiagnostika metodikasini amalda qo`llay bilish tajribasiga ega bo`lishi ham katta ahamiyatga ega. Bunday metodikalardan foydalanish tajribasi ham uzluksiz bo`lishi kerak, chunki ulardan foydalanishdagi tanaffusning uzoq vaqt cho`zilishi ham odatda tegishli bilim, malaka, ko`nikmalarning yo`qolishiga va ular bilan ishlash sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Amaliyotchi psixolog tadqiqotlar o`tkazish vaqtida quyidagi axloqiy-etik me`yorlarga amal qilishi shart:

o`rganiluvchi shaxsni uning ixtiyoriy rozilgisiz psixologik tadqiqotga jalb qilmaslik lozim (qonunda belgilangan alohida sud yoki meditsina amaliyoti holatlari bundan mustasno);

tadqiqot o`tkazishdan oldin sinaluvchini tadqiqot jarayonida o`zi anglamagan (sezmagani, bilmagan) holda o`zi haqida, o`z fikr-o`ylari, hissiyoti haqida ayrim ma`lumotlarni berib yuborishi mumkinligi haqida ogohlantirib qo`yish lozim;

v) agar bu qonunda ko`rsatilmagan bo`lsa, har qanday shaxs(sinaluvchi) testlashtirish natijalarini, undan olingan ma`lumotlarni va ulardan kim, qaerda va nima maqsadda foydalanishi mumkinligini bilishga haqli;

g) psixologik tadqiqot natijalari testni o`tkazgan shaxs tomonidan sinaluvchiga to`g`ri tushuniladigan shaklda berilishi lozim;

voyaga yetmagan sinaluvchilarni o`rganishda ularning ota-onasi yoki ularning o`rnini bosuvchi shaxslar o`smirning testlashtirish natijalarini bilishga haqli;

agar metodika shaxsning psixik rivojlanganlik darajasini aniqlash, konkurs asosida tanlab olish yoki ishga qabul qilish maqsadida o`tkazilayotgan bo`lsa, bunda ham sinaluvchi nafaqat testlashtirish maqsadi, balki u haqida test natijalariga ko`ra qanday asosda xulosa qilinishini ham bilishga haqli;

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o`smirlarda tarbiyasi “qiyin”lik holatini kelib chiqish sabablarini o`rganishda amaliyotchi psixologning roli juda muhimdir. Psixolog tomonidan olib boriladigan diagnostik, profilaktik va korreksion ishlar o`smirlarning ruhiy holatini yaxshilashga xizmat qiladi. O`qituvchi, psixolog va ota-onalarning hamkorligi asosida yaratilgan sog`lom psixologik muhit tarbiyasi qiyin o`smirlarning jamiyatga moslashuvi va barkamol shaxs bo`lib shakllanishiga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. G`oziev E. G. Yosh davrlari psixologiyasi. — Toshkent: O`qituvchi, 2017.
2. Davletshin M. G. Pedagogik psixologiya. — Toshkent, 2018.
3. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Sharq, 2020.
4. Hasanboyev J. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. — Toshkent, 2019.
5. Vygotskiy L. S. Psixologik rivojlanish asoslari. — Moskva, 2016.